

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi:

BD - 5111900 - 3.05

2017-yil «28» 08



Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarining klinik asoslari

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar

Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika

Ta'lim yo'nalishi: 5111900 –Defektologiya

Toshkent – 2017

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2017-yil "24" 08 dagi ~~603~~ sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: Madazizova D.R. TDPU «Maxsus ta'lim metodikalari» kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchilar:

T.A.Sagatov

Toshkent tibbiyot akademiyasi
"Odam anatomiyasi va OJTA"
kafedrası mudiri, tib.f.d., professor

M.Nurmuxamedova

52-ixtisoslashtirilgan yordamchi
maktab direktori

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2017-yil "22" 06 dagi "29"-sonli bayonnoma).

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Barcha fanlar singari Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarining klinik asoslari fani ham o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi

Miya va lor a'zolarining tuzilishi va ularning faoliyati ruhiy jarayonlarning tub mohiyati nafaqat yosh avlodni tarbiyalab kelayotgan pedagoglar, balki jamoatchilikni ham qiziqtirib kelgan. Bu sohadagi bilim ayniqsa ruhiy jihatdan nosog'lom bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan shug'ullanayotgan maxsus pedagoglar uchun juda ahamiyatlidir.

Nerv va lor a'zolari tizimi anatomiyasi, fiziologiya va patologiyasi haqidagi ma'lumotlar maxsus pedagogikaning asosini tashkil etadi. Bu sohani o'rganish yosh pedagog tarbiyachilarni maxsus bilimlar asosida o'sib kelayotgan bolalarning har turli nuqsonlarini bartaraf qilishda amaliy malakalarni shakllantiradi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash va ularga bilim berishda faqatgina tibbiy adabiyotlardan foydalanish ko'p hollarda samarali emasligi, nevropatologiya darsliklari pedagoglar uchun bir muncha murakkabligi, yetarli darajada pedagogik faoliyat uchun moslashtirilmaganligi talabalarga bu haqida chuqur bilim berish kerakligini anglatadi.

Pedagoglar faoliyatida nerv va lor a'zolari kasalliklariga chalingan bolalar ham uchrab turadi. Nerv va lor a'zolari kasalligiga uchragan bolalar tarbiyasi hususiyatlari haqida muhokama yuritiladi.

"Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari" fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, dasturni amalga oshirishda o'quv rejadagi anatomiya, genetika, tibbiy bilim asoslari, yosh fiziologiyasi fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

Mazkur fan ixtisoslik fani bo'lib, talabalarga imkoniyati cheklangan bolalardagi nuqsonlar va kasalliklarning tibbiy jihatlari to'g'risida boshlang'ich bilim, malaka va ko'nikmalarni beradi, ular talabalarga psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ish olib borishda katta ahamiyatga ega.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

O'quv fanining maqsadi - Imkoniyati cheklangan bolalardagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari va bola psixik va jismoniy rivojlanishiga ta'siri, inson organizmining umumiy tuzilishi va turli nuqsonlar mavjud bo'lgandagi holati, bosh miya va asab tizimi faoliyati, ko'rish, eshitish va nutq sensorlarining faoliyati, fiziologiyasi va patologiyasi, ulardagi turli kasalliklarning kelib chiqish sabablari va inson umumiy va ma'lum xususiyatlari rivojiga ta'siri kabi masalalarni o'rganishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarda psixik va jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalardagi nuqsonlar va kasalliklar, xususan, oliy asab tizimi, ko'rish, eshitish va nutq sohasidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablari, klinik

ko'rinishlari va ularning bolaning umumiy salomatligi va nuqsonlar holatiga ta'siri bo'yicha tibbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni nazariy va amaliy jihatdan shakllantirishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan **talablar**:

“Bolalar rivojlanishdagi nuqsonlarining klinik asoslari” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida

Bakalavr:

- defektologiyaning klinik asoslari to'g'risidagi umumiy tushunchalar;
- nevrologiya va nevropatologiya haqida umumiy tushunchalar;
- inson bosh miyasi anatomiyasi va fiziologiyasi, bosh miya qobig'i;
- inson bosh miyasi asablari tuzilishi va fiziologik xususiyatlari;
- inson oliy asab tizimi faoliyati va uni tadqiq qilish metodlari;
- inson oliy asab tizimi patologiyasi va kasalliklari etiologiyasi;
- inson harakatlanish tizimi;
- inson koordinatsion va ekstrapiramid tizimi;
- inson reflektor tizimi, sezgi organlari fiziologiyasi va patologiyasi;
- inson eshitish analizatorlari tizimi anatomiyasi va fiziologiyasi;
- inson eshitish analizatorlari patologiyasi va kasalliklari etiologiya;
- kar va zaif eshituvchi bolalar rivojlanishining psixo-fiziologik xususiyatlari;
- inson ko'rish analizatorlari tizimi anatomiyasi va fiziologiyasi;
- inson ko'rish analizatorlari patologiyasi va kasalliklar etiologiyasi;
- ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar rivojlanishining psixo-fiziologik xususiyatlari;
- inson nutq organlari anatomiyasi va fiziologiyasi;
- inson nutq organlari patologiyasi va kasalliklar etiologiyasi;
- nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishning psixo-fiziologik xususiyatlari;
- bola rivojining psixik xususiyatlari;
- psixik buzilishlar sabablari va bola salomatligiga ta'siri;
- psixik rivojlanishi sust va aqli zaif bolalar rivojlanishining psixo-fiziologik xususiyatlari va ularni aniqlash metodlarini *bilishi*;

Tibbiy adabiyotlar va hujjatlardan foydalanish, egallagan bilimlarini defektologiya sohasiga oid boshqa bilimlarni o'zlashtirishda, pedagogik amaliyot va keyinchalik amaliy kasbiy faoliyati jarayonida qo'llay olish **ko'nikmalari**;

- imkoniyati cheklangan bolalar anamneziga oid ma'lumotlarni shakllantirish va rehabilitatsiya va korreksion-pedagogik jarayonlarda ulardan samarali foydalana olish **malakalariga** ega bo'lishi lozim.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-Modul. Nervpatologiya

1-mavzu. “Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari” fanining maqsad va vazifalari

“Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari” fani. Fanning maqsad va vazifalari. Uning defektologik fanlar tizimida tutgan oʻrni. Boshqa fanlar bilan aloqasi.

2-mavzu. Nevrologiya va nervpatologiya haqida umumiy tushunchalar

Nevrologiya fani haqida umumiy tushuncha. Nevrologiya fanining rivojlanish tarixi va bugungi holati. Defektologiyadagi oʻrni va ahamiyati. Nervpatologiya haqida umumiy tushuncha. Uning rivojlanish tarixi va bugungi holati. Defektologiyadagi oʻrni va ahamiyati. Bola nevrologiyasi va nervpatologiyasi.

3-mavzu. Inson bosh miyasi anatomiyasi, fiziologiyasi va patologiyasi

Inson bosh miyasining tuzilishi. Uning fiziologik xususiyatlari. Bosh miya patologiyasining asosiy koʻrinishlari. Bosh miya patologiyasining inson psixik va jismoniy salomatligiga taʼsiri.

4-mavzu. Inson bosh miyasi poʻstlogʻi

Inson bosh miyasi poʻstlogʻining tuzilishi. Uning patologiyasi. Zararlanish sindromlari va inson salomatligiga taʼsiri.

5-mavzu. Inson bosh miya asablari anatomiyasi, fiziologiyasi va patologiyasi

Bosh miya asablarining tuzilishi. Ularning fiziologik xususiyatlari. Patologiyasining asosiy koʻrinishlari va inson salomatligiga taʼsiri.

6-mavzu. Inson asab tizimini tadqiq qilish metodlari

Inson asab tizimi. Uning normal faoliyati. Undagi patologiya va kasalliklar etiologiyasini tadqiq qilish metodlari.

7-mavzu. Inson koordinatsion va ekstrapiramid tizimi

Inson koordinatsion tizimi anatomiyasi. Inson ekstrapiramid tizimi anatomiyasi. Mushaklar koordinatsiyasining asosiy xususiyatlari.

8-mavzu. Inson harakatlanish tizimi.

Inson harakatlanish tizimi anatomiyasi. Harakatlanish tizimlari patologiyasi va inson salomatligiga taʼsiri.

9-mavzu. Inson reflektor tizimi

Inson reflektor tizimi haqida umumiy tushunchalar. Reflektor tizimlari patologiyasi va inson salomatligiga taʼsiri.

10-mavzu. Inson sezgi organlari fiziologiyasi va anatomiyasi

Insonda sezgi organlari tizimi va vazifalari. Ularning tuzilishi. Sezgi organlari patologiyasi va kasalliklar etiologiyasi.

II-Modul. Lorpatologiya

11-mavzu. Inson eshitish analizatorlari tizimi va tovushni his etish

Inson eshitish analizatorlari tizimi. Tovushning akustik va fizik xususiyatlari. Insonda tovushni his etishning oʻziga xos xususiyatlari.

12-mavzu. Inson eshitish analizatorlari anatomiyasi va fiziologiyasi

Inson eshitish organlari tuzilishi va vazifalari. Eshitish organlari fiziologiyasi.

13-mavzu. Inson eshitish organlari asosiy patologiyasi

Inson eshitish organlari patologiyasining asosiy ko'rinishlari. Ularning inson salomatligiga ta'siri.

14-mavzu. Inson tashqi qulog'i kasalliklari

Tashqi quloqning tuzilishi. Tashqi quloq funksiyalarining buzilishi va kasalliklari etiologiyasi. Ularni aniqlash metodlari

15-mavzu. Inson o'rta qulog'i kasalliklari

O'rta quloqning tuzilishi. O'rta quloq funksiyalarining buzilishi va kasalliklari etiologiyasi. Ularni aniqlash metodlari

16-mavzu. Inson ichki quloq kasalliklari

Ichki quloqning tuzilishi. Ichki quloq funksiyalarining buzilishi va kasalliklari etiologiyasi. Ularni aniqlash metodlari

17-mavzu. Inson eshitish qobiliyatini o'rganish metodlari

Eshitish qobiliyatini zamonaviy tekshirish usullari. Nutq va kamertonlar bilan tekshirish. Audiometriya. Tashqi va nutqli audiometriya. Otoskopiya.

18-mavzu. Yordamchi eshitish apparatlari

Yordamchi eshitish apparatlarining tasnifi. Zamonaviy yordamchi eshitish apparatlari turlari va ularni tavsiya etish.

19-mavzu. Kar va zaif eshituvchi bolalar rivojlanishining psixofiziologik xususiyatlari

Kar va zaif eshituvchi bolalarning umumiy rivojlanish xususiyatlari. Zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan tibbiy va pedagogik tadbirlarning umumiy xususiyatlari.

20-mavzu. Inson nutq organlari haqida asosiy tushunchalar

Inson nutqi haqida umumiy tushunchalar. Nutq organlari anatomiyasi va fiziologiyasi. Ovoz va nutqning hosil bo'lishi. Nutq organlaridagi umumiy patologik buzilishlar sabablari va oqibatlari.

21-mavzu. Inson nutq organlari markaziy tizimi

Inson nutq organlari markaziy tizimi. Uning anatomiyasi va fiziologiyasi.

22-mavzu. Inson nutq organlari periferik tizimi

Inson nutq organlari periferik tizimi. Uning anatomiyasi va fiziologiyasi.

23-mavzu. Inson nutq organlari markaziy va periferik tizimlari patologiyasi

Inson markaziy va periferik tizimi organlari patologiyasi va kasalliklar etiologiyasi. Profilaktika va korreksiyaning asosiy xususiyatlari.

24-mavzu. Inson nutqi nuqsonlarini o'rganish metodlari

Inson nutqidagi nuqsonlarni o'rganishning zamonaviy metodlari. Nutqiy nuqsonlarni o'rganish asosida tibbiy va pedagogik choralarni belgilash.

25-mavzu. Nutqida nuqsoni bor bolalar rivojlanishining psixofiziologik xususiyatlari

Nutqida nuqsoni bor bolalarning umumiy rivojlanish xususiyatlari. Zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan tibbiy va pedagogik tadbirlarning umumiy xususiyatlari

26-mavzu. Kar-soqovlik. Kar-soqov bolalar rivojlanishining psixofiziologik xususiyatlari.

Kar-soqovlikning o'zaro bog'liqligi. Kar-soqov bolalar rivojlashining o'ziga xos xususiyatlari. Kar-soqov bolalar bilan olib boriladigan tibbiy va pedagogik tadbirlarning umumiy xususiyatlari

III-Modul. Tiflopatologiya

27-mavzu. Inson ko'rish analizatorlari anatomiyasi va fiziologiyasi

Inson ko'rish analizatorlari tizimi. Ko'rish qobiliyati haqida umumiy tushuncha. Insonda ko'rishning o'ziga xos xususiyatlari.

28-mavzu. Inson ko'rish analizatorlari patologiyasi

Inson ko'rish analizatorlari patologiyasi va kasalliklar etiologiyasi. Profilaktika va korreksiyaning asosiy xususiyatlari.

29-mavzu. Turli kasalliklar va jarohatlar oqibatida ko'rish qobiliyatini yo'qotish yoki zaiflashuvi

Turli kasalliklarning asoratlari va jarohatlar oqibatlari sifatida ko'rish qobiliyatining yo'qolishi yoki sustlashuvi. Profilaktik va klinik tadbirlar.

30-mavzu. Inson ko'rish qobiliyatini aniqlash metodlari

Inson ko'rish qobiliyatidagi nuqsonlarni o'rganishning zamonaviy metodlari. Ko'rishdagi nuqsonlarni o'rganish asosida tibbiy va pedagogik choralarni belgilash.

31-mavzu. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar psixo-fiziologik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning umumiy rivojlanish xususiyatlari. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar bilan olib boriladigan tibbiy va pedagogik tadbirlarning umumiy xususiyatlari

IV-Modul. Psixopatologiya

32-mavzu. Bolalar psixiatriyasi

Psixiatriya fanining rivojlanish tarixi. I.P.Pavlovning fiziologik izlanishlarini psixiatriya va pedagogika uchun ahamiyati, psixopatologiya va psixiatriya tushunchalari, O'zbekistonda psixiatriyaning ravnaqi.

33-mavzu. Bolalar psixikasining buzilishi

Bolalar psixopatologiyasi. Psixopatologiya asosiy ko'rinishlari va omillari. Psixik buzilishlarning bola salomatligiga ta'siri

34-mavzu. Turli kasalliklarda uchraydigan psixik buzilishlar

Umumiy va yuqumli kasalliklarning psixikaga ta'siri. Jarohatlar va ularning psixikaga ta'siri. Psixik oqibatlar klinikasi va profilaktikasi.

35-mavzu. Bolalar psixozlari va nevrozlari

Nevrozlar, psixozlar to'g'risida tushuncha. Ularning kelib chiqish sabablari. Ularning kechishi, bosqichlari. Klinikasi va profilaktikasi.

36-mavzu. Bolalar shizofreniyasi

Klinik formalari. Shizofreniya bilan og'rigan bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish usullari. Psixopatiya - shaxsning nuqsonli rivojlanishlari. Psixiatriyada qo'llaniladigan kompleks davo-pedagogik choralari.

37-mavzu. Aqli zaiflik va aqliy rivojlanish sustlashuvining kelib chiqish sabablari

Aqli zaiflik to'g'risidagi bilimlarning rivojlanish bosqichlari. Aqli zaiflikning kelib chiqish sabablari. Aqli zaiflik va aqliy rivojlanish sustlashuvining umumiy rivojlanishga ta'siri.

Aqli zaif va aqliy rivojlanishi sust bolalar psixo-fiziologik rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish boyicha ko'rsatma va tavsiyalar

"Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari" fani rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlar nazariy mashg'ulotlarda olingan bilimlarni mustahkamlashga hizmat qiladi. Uning mazmuni psixik va jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik tadbirlarni samarali tashkil etishga yo'naltirilgan.

Amaliy mashg'ulotlarning mazmuni

Nevropatologiya

"Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari" fanining predmeti va vazifalari

Nevrologiya. Nevropatologiya. Ularning o'rni va ahamiyati.

Inson bosh miyasi. Uning tuzilishi va funksiyalari. Patologiyasining asosiy ko'rinishlari. Bosh miya patologiyasining inson umumiy salomatligiga ta'siri

Inson bosh miyasi po'stlog'i. Tuzilishi. Funksiyalari. Patologiyasi va uning oqibatlari.

Bosh miya asablari tuzilishi. Patologiyasining asosiy ko'rinishlari. Bosh miya asablaridagi buzilishlarning inson psixik va jismoniy salomatligiga ta'siri.

Inson asab tizimini o'rganish. Xorijiy davlatlar tajribasi. O'zbekiston tajribasi. Inson asab tizimi tadqiqotlarining defektologiyadagi ahamiyati.

Inson koordinatsion tizimi. Ekstrapiramid tizim. Ulardagi patologiya va kasalliklar ta'sirida buzilishlar oqibatlari.

Harakatlanish tizimi anatomiyasi. Tizim organlarining funksiyalari. Patologiya va kasalliklar natijasida buzilishlar ta'siri va oqibatlari.

Reflektor tizim. Tuzilishi va undagi organlar funksiyalari. Reflektor buzilishlar va ularning psixik va jismoniy salomatlikka ta'siri.

Inson sezgi organlari. Sezgi organlarining funksional turlari. Anatomiyasi. Patologiya va kasalliklar ta'sirida buzilishlar va ularning oqibatlari.

Lorpatologiya

Eshitish analizatorlari tizimi. Tovush va uning xususiyatlari.

Eshitish analizatorlari anatomiyasi. Ularning fiziologik xususiyatlari.

Eshitish organlari patologiyasining asosiy ko'rinishlari. Eshitish organlari patologiyasini tashxislash.

Inson tashqi qulog'I va uning qismlari. Tashqi quloq patologiyasi va kasalliklari etiologiyasi.

Inson o'rta qulog'i va uning qismlari. O'rta quloq patologiyasi va kasalliklari etiologiyasi.

Inson ichki qulog'i va uning qismlari. Ichki quloq patologiyasi va kasalliklari etiologiyasi.

Inson eshitish qobiliyati holati. Eshitish qobiliyati xolatini aniqlash, nuqsonlar va kasalliklarni tashxislash.

Yordamchi eshitish apparatlari va funksiyalari. Apparatlarni tavsiya etish va qo'llash.

Kar va zaif eshituvchi bolalar psixik rivojlanishi. Mazkur toifadagi bolalarning jismoniy rivojlanishi. Kar va zaif eshituvchi bolalar tibbiy va pedagogik korreksiyasining o'ziga xosligi. Maxsus ta'lim muassasasiga tashrif.

Inson nutqi. Nutq organlari anatomiyasi. Nutq organlari funksiyalari.

Markaziy nutq organlari tizimi. Uning qismlari va funksiyalari.

Periferik nutq organlari tizimi. Uning qismlari va funksiyalari.

Nutq organlarining patologik va kasalliklar sababli buzilishlari hamda oqibatlari.

Nutqdagi nuqsonlarni tibbiy tashxislash. Nutqdagi nuqsonlar klinikasi va profilaktikasi. Logopedik aralashuv.

Nutqida nuqsoni bor bolalar rivojlanishining psixik xususiyatlari. Mazkur toifa bolalar rivojlanishining fiziologik xususiyatlari. Tibbiy va pedagogik korreksiyasining o'ziga xosligi. Maxsus ta'lim muassasasiga tashrif.

Kar-soqovlik tushunchasi. Ikkala nuqsonning birga namoyon bo'lish xususiyatlari. Mazkur toifa bolalar tibbiy va pedagogik korreksiyasining o'ziga xosligi. Tibbiyot yoki maxsus ta'lim muassasasiga tashrif.

Tiflopatologiya

Inson ko'rish analizatorlari tuzilishi. Ko'rish organlari funksiyalari.

Ko'rish analizatorlari patologiyasi va kasalliklari etiologiyasi. Ularning klinikasi va profilaktikasi.

Kasalliklar va jarohatlar oqibatida ko'rish qobiliyatini yo'qotish yoki zaiflashuvi, klinikasi va profilaktikasi

Ko'rish qobiliyatini aniqlashning zamonaviy metodlari. Tibbiyot muassasasiga tashrif.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar rivojlanishining psixik xususiyatlari. Mazkur toifa bolalar rivojlanishining fiziologik xususiyatlari. Tibbiy va pedagogik korreksiyasining o'ziga xosligi. Maxsus ta'lim muassasasiga tashrif.

Psixopatologiya

Bolalar psixopatologiyasi. Bolalar psixiatriyasi. Ularning zamonaviy rivojlanish xolati va defektologiyadagi ahamiyati.

Bolalar psixikasi buzilishi sabablari. Tug'ma nuqsonlar.

Yuqumli kasalliklarning inson psixikasiga ta'siri. Yuqumli kasalliklar davrida psixik oqibatlar profilaktikasi.

Jarohatlarning inson psixikasiga ta'siri va oqibatlari. Shikastlanishlar va jarohatlarning psixikaga ta'sirini kamaytirish choralari.

Bolalar psixozlari. Bolalar nevrozlari. Ularning kelib chiqish sabablari. Klinikasi va profilaktikasi.

Bolalar shizofreneyasi. Turlari va kelib chiqish sabablari. Klinikasi va profilaktikasi.

Aqli zaiflik. Aqliy rivojlanish sustlashuvi. Ularning kelib chiqish sabablari. Namoyon bo'lish xususiyatlari.

Aqli zaif va aqliy rivojlanishi sust bolalar psixik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. Mazkur toifa bolalar rivojlanishining fiziologik xususiyatlari. Tibbiy va pedagogik korreksiyasining o'ziga xosligi. Maxsus ta'lim muassasasiga tashrif.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Poliomiyelet kasalligining kelib chiqish sabablari va asoratlari.
2. Meningit kasalligining kelib chiqish sabablari va asoratlari.
3. Ensefalit kasalligining kelib chiqish sabablari va asoratlari.
4. Bosh miya jarohatlarining kelib chiqish sabablari va asoratlari.
5. Epilepsiya kasalligining kelib chiqish sabablari va asoratlari.
6. Nevroz kasalligining kelib chiqish sabablari va asoratlari.
7. Bolalar serebral falajining kelib chiqish sabablari va asoratlari.
8. Logonevrozlarning kelib chiqish sabablari va asoratlari.
9. Koxlear nevit.
10. Minyer kasalligining kelib chiqish sabablari va asoratlari.
11. Eshituv nervi nevitining kelib chiqish sabablari va asoratlari.
12. Toksik nevitlarning kelib chiqish sabablari va asoratlari.
13. Bolalik yoshidagi kar soqovlik va karlik.
14. Laringit kasalligining kelib chiqish sabablari va asoratlari.
15. Difteriya kasalligining kelib chiqish sabablari va asoratlari.
16. Hiqildoqning qo'shimcha kasalliklarini kelib chiqish sabablari va asoratlari.
17. Xromosoma kasalliklarining kelib chiqish sabablari va asoratlari.
18. Infekstion kasallik sababli kelib chiqqan oligofreniya.
19. Moddalar almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqqan oligofreniya.
20. Gidrosefaliyaning kelib chiqish sabablari va asoratlari.
21. Mikrocefaliyaning kelib chiqish sabablari va asoratlari.
22. Jarohatlanish natijasida kelib chiqqan oligofreniyaga ta'rif bering.
23. Shizofrenik demensiyaning kelib chiqish sabablari va asoratlari.
24. Tug'ruq travmasidan kelib chiqqan oligofreniyaga ta'rif bering.
25. Nevroz va psixozlar.
26. Neyroinfeksiyalardagi ruhiy o'zgarishlar.
27. Epilepsiyadagi ruhiy buzilishlar.
28. Toksikomaniya, alkogolizm va narkomaniyadagi ruhiy buzilishlar
29. Shizofreniyaning turlari
30. Epileptik demensiya

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayorlash va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Fan bo'yicha kurs ishi. Ushbu fandan o'quv rejaga asosan kurs ishi rejalashtirilmagan.

VII. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. O'quv qo'llanma. T.: TDPU – 2013.
2. Sodiqova Q, Aripova S.X, Shaxmurova G.A . Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. T.: “Yangi asr avlodi” - 2009.
3. Michael Alan Taylor and Nutan Atre Valdy - 2009
4. Alfredo Ardila “Aphasia Handbook” Florida International University - 2014
5. Brad Bolon Fundamental Neuropathology for Pathologists and Toxicologists - 2011

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истикболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. “Ўзбекистон”, 2017.
3. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси президентининг фармони. *Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017й., 6-сон, 70-модда.*
4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. “Ўзбекистон”, 2017.
5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси-Т.:Ўзбекистон, 2014.-46б.
6. Sodiqova G.Q. Bolalar nevrologiyasi T “Iqtisod-moliya” 2008 y.
7. Davletshin M.G va boshqalar, Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T-2004

Internet saytlari

www.gov.uz - Ўзбекистон Республикаси ҳукумат портали.
www.lex.uz– Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.

www.tdpu.uz- Nizomiy nomidagi TDPU portali.

www.Ziynet.uz

www.edu.uz

[tdpu-INTRANET.Ped.](http://tdpu-INTRANET.Ped)

www.chemistry.ru

www.labchem.ru